

**Favqulodda vaziyatlar vazirligi tomonidan**  
**2021 yilning I yarim yilligi davomida aholini va hududlarni favqulodda**  
**vaziyatlardan muhofaza qilish va yong'in xavfsizligini ta'minlash borasida**  
**amalga oshirilgan ishlar to'g'risida**

**H I S O B O T**

Favqulodda vaziyatlar vazirligining 2021 yilning I yarim yillikdagi asosiy faoliyati aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish hamda yong'in xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan tadbirlarni samarali tashkil etishga qaratildi.

Mavsumiy kasalliklar (quturish, Qrim-Kongo gemorragik isitmasi, kuydirgi kasalligi, botulizm va b.) profilaktikasi bo'yicha 60 marotaba seminar va maxsus-taktik o'quv mashqlari tashkil etilib, aholi bilan 11 ming 34 marotaba o'tkazilgan suhbatlarda 1 mln. 998 ming nafar fuqarolar qamrab olinib, tushuntirish ishlari davomida 168 ming 55 ta eslatma va bukletlar tarqatildi, 6,5 mln. bosh chorva mollari cho'miltirilib, 115 ming mol saqlanadigan joylar dezinseksiya qilindi, 100 ming bosh hayvonlar emlanib, 5 ming tonnadan ortiq sifatsiz oziq-ovqat mahsulotlari o'rnatilgan tartibda yo'q qilindi. Bundan tashqari, mavzuga oid videoroliklar hududiy televideniyalarda 1 ming 340 marta namoyish etildi.

Shuningdek, jami 463 ming 076 hektar maydonda zararli chigirkalarga qarshi kimyoviy ishlovlar o'tkazildi.

"Chorshanba – Favqulodda vaziyatlar profilaktikasi kuni" munosabati jami 72 ming 489 marotaba o'tkazilgan profilaktik tadbirlarga 2 mln. 318 ming 880 nafar fuqarolar qamrab olinib, 1 mln. 308 ming 92 dona eslatma va bukletlar tarqatildi.

Viloyat, tuman (shahar) miqyosida o'tkazilgan 16 ta qo'mondonlik shtab-o'quv mashqlari davomida 75 ming 056 nafar, korxona va tashkilotlardagi 47 ta, shuningdek, hududiy boshqarmalar rejaliari asosida o'tkazilgan 316 ta maxsus-taktik o'quv mashqlari davomida FVDqT xizmatlari, aholi, korxona hamda tashkilotlarning 33 ming 194 nafar xodimlari bilan targ'ibot va tushuntirish ishlari olib borildi.

Umumta'lim va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarida "Yosh qutqaruvchi" ko'ngillilar klublari faoliyatini tashkil etish mavzusida Yoshlar ittifoqi Markaziy kengashi, Favqulodda vaziyatlar, Jismoniy tarbiya va sport, Xalq ta'limi, Oliy va o'rta maxsus ta'limi, Madaniyat va Sog'liqni saqlash vazirliklari, shu jumladan ularning hududiy tuzilmalari mas'ul xodimlaridan 4 ming 042 nafari ishtirokida respublika hamda hududiy seminarlar, umumta'lim maktablari, akademik liseylar va kasb-hunar kollejlari (jami 2 ming 681 ta) "Yosh qutqaruvchi" ko'ngillilar klublari bilan tuman (shahar), viloyat, respublika musobaqalari o'tkazilib, tadbirlarda 9 ming 266 ta jamoadan iborat 77 ming 947 nafar ishtirokchilar qatnashdi.

Davlat yong‘in nazorati sohasida ob'ektlarda 36 ming 436 mingta rejali, 4 ming 643 nazorat tartibida, 43 ming 965 tezkor tekshirish va 1 ming 877 ta profilaktik ko‘rik o‘tkazildi. Shuningdek, 1 mln. 17 ming 782 ta yakka tartibdagi uy-joy, 36 ming 660 ta ko‘p qavatli uydagi 529 ming 429 ta xonadon o‘rganildi. Tadbirlar davomida joylardagi javobgar shaxslarga berilgan 612 ming 975 banddan iborat yozma ko‘rsatmadan 470 ming 804 tasi (76,8%) bajarilib, jami 8 mln. 759 ming 218 nafar fuqaro hamda korxonalarning ishchi-xodimlari bilan targ‘ibot va tushuntirish ishlari olib borildi, shuningdek, reklama qalqonlariga jami 73 ming 190 ta turli xildagi ogohlikka chorlovchi e’lon, xabar, lavhalar va videoroliklar joylashtirildi.

Bulardan tashqari, yong‘in-qutqaruv qismlari shaxsiy tarkibi tomonidan 12 mln. 499 ming 26 ta aholi yashash uylarida uy egalariga yong‘in xavfsizligi bo‘yicha yo‘l-yo‘riq berildi.

Hisobot davrida Sanoat xavfsizligi davlat qo‘mitasining hududiy boshqarmalari, Madaniyat boshqarmalari, Milliy gvardiya, Ichki ishlar boshqarmalari, mahalliy hokimliklar hamda kommunal soha tashkilotlari mutaxassislaridan iborat ishchi guruqlar tarkibida madaniyat va istirohat bog‘larida faoliyat ko‘rsatayotgan attraksionlar holati o‘rganib chiqilib, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish borasida bog‘lar rahbariyatiga ko‘rsatmalar yuborildi.

Joriy yilning I yarim yilligi davomida o‘tkazilgan 3 ta ilmiy-amaliy anjuman va 4 ta seminarlarda Innovasion rivojlanish vazirligi, tegishli vazirlik va idoralar, 6 ta oliy harbiy ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari, yosh olimlar va iqtidorli kursantlar, shuningdek, ommaviy axborot vositalari xodimlarining ishtiroti ta’milanib, jami 107 marotaba (7 marotaba televedeniya, 3 marotaba radio, 34 marotaba gazeta va 52 marotaba ilmiy jurnal va konferensiya to‘plamlari) ommaviy axborot vositalarida chiqishlar amalga oshirildi.

Yirik infratuzilma va sanoat ob'ektlari shuningdek, turar joylarni qurish jarayonida avariyyaviy holatlar va baxtsiz hodisalarining oldini olish maqsadida qurilish ishlari olib borilayotgan 95 ta baland qavatli, 25 ta odamlar ko‘p yig‘iladigan savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish hamda 24 ta yirik ishlab chiqarish ob'ektlarida yong‘in xavfsizligi talablari bajarilishi loyihalash va buyurtmachi tashkilotlar vakillari bilan hamkorlikda o‘rganib chiqildi.

“Obod qishloq” va “Obod mahalla” davlat dasturlari doirasida Toshkent shahrining Bektemir tumani, Toshkent viloyatining Zangiota, Parkent va Chinoz tumanlari, Jizzax viloyatining Zomin hamda Buxoro viloyatining Olot tumanlarida iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy soha ob'ektlarining barqaror faoliyatini ta’minalash, aholini qiy nab kelayotgan masalalarni o‘rganish va amaliy yordam ko‘rsatish ishlari olib borildi.

Vazirlik Maxsus muhandislik-qurilish boshqarmasi tomonidan Toshkent shahrining Bektemir va Sergeli, Toshkent viloyatining Yuqorichirchiq va Sirdaryo viloyatining Xovos tumanlarida asfal’t-beton va tosh maydalash zavodlari qurib foydalanishga topshirildi, M-34 “Toshkent – Dushanbe” avtomobil’ yo‘lining Sirdaryo viloyatidan o‘tgan 7,4 kilometrlik qismida ta’mirlash ishlari yakunlandi.

Maxsus muhandislik qurilish boshqarmasi shaxsiy tarkibi tomonidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent va Samarcand viloyatlarida 8 ta ko‘p qavatli, 47 ta namunaviy bir qavatli uylarning qurilishi yakunlandi.

Shu bilan birga, Madaniyat saroylari, tikuvchilik fabrikalari, zamonaviy arxitektura va innovation loyihalar asosida istiroxat bog‘i qurilib, foydalanishga topshirildi.

“Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari asosida Qoraqalpog‘iston Respublikasining Muynoq shahri, Taxtako‘pir tumani, Toshkent viloyatining Chinoz, Buxoro viloyatining Olot, Samarcand viloyatining Bulung‘ur tumanlarida 547 ta uy-joyning fasad qismi ta‘mirlanib, 92 ta yordamchi xo‘jalik binolari, 180 ta tandirxona, 52 ta issiqxonalar qurish ishlari bajarildi.

Shu bilan birga, 100dan ortiq olis qishloqlar va o‘ta og‘ir hududlarda obodonlashtirish ishlari o‘tkazilib, 10 mingdan ortiq uy-joylar ta‘mirlandi, 35 kilometr uzunlikdagi ichki ariqlar tozalanib, 3,5 kilometr yo‘llarga asfal’t, 20 kilometr ichki yo‘llarga shag‘al yotqizildi, 7 ming metr kvadrat piyodalar yo‘lakchasi qurildi, 37 ming tup mevali va manzarali daraxtlarga shakl berilib, 17 ming ko‘chat o‘tqazildi. Jizzax viloyatining Zomin tumanida 280 hektarlik yer maydonlari o‘zlashtirilib, uzoq muddat foydalanimasdan turgan plantasiya, pichanzor va yaylov hududlarni qishloq xo‘jaligi ekinlari yetishtiriladigan unumdar yerbosqicha aylantirish, suvni tejash uchun suv havzalari qazish hamda unga maxsus geomembrana yotqizish, tomchilatib sug‘orish texnologiyasini joriy etish tadbirlari olib borildi.

Orolbo‘yi hududida ekologik barqarorlikni saqlash maqsadida, jami 116,2 tonna qorabaroq, saksovul va teresken urug‘lari yig‘ilib, 1 mln. 658 ming ga maydonda o‘rmon-melioratsiya ishlari amalga oshirildi.

“Mo‘ynoq kelajagi bunyodkorlari” MChJga mahalliy hokimliklar zaxira yerlaridan ajratilgan jami 20 ming hektar yer maydonlariga sabzavot va poliz ekinlari, dukkakli mahsulotlar hamda chorva ozuqasi ekish tadbirlari o‘tkazilib, xorijiy davlatlardan keltirilgan 676 ga yaqin yirik shoxli zotdor chorva mollari parvarish qilinmoqda.

Tashkil etilgan unumdar ekin maydonlarini tomchilatib sug‘orish ishlari tashkil etilib, 3 mln. 40 ming metr kub hajmli suv saqlash havzalari qurildi hamda 266 ming metr kub tuproq va damba mustahkamlash ishlari yakunlandi.

Hozirda Taxtako‘pir, Bo‘zatov, Beruniy va Mo‘ynoq tumanlarida 5 ta yirik chorvachilik majmularini qurish va rekonstruksiya qilish ishlari davom etmoqda. Respublika hududidagi dovon (“Qamchiq”, “Taxtaqoracha”, “Oqrobot”, “Langar”, “Chakchak”)lar, Jizzax viloyati hududidagi “Toshkent - Termez” M-39 avtomagistrali, “Jizzax – G‘allaorol – Qo‘ytosh – Qorabdol – Forish” 4R avtoyo‘llarida fuqarolarning hamda avtotransport vositalarining qish mavsumida uzluksiz va bexatar harakatlanishni ta‘minlash choralarini ko‘rildi.

Respublikada sodir bo‘lgan favqulodda vaziyatlar, targ‘ibot tadbirlari, qutqaruv ishlari, ko‘mondonlik-shtab, maxsus-taktik o‘quv mashg‘ulotlarining

tafsilotlari markaziy telekanal va radiokanallar orqali 256 marotaba, vazirlikning rasmiy veb-saytida 723 marotaba, jami 979 dan ortiq ommaviy axborot vositalarida keng yoritildi.

Hududiy boshqarmalar tomonidan mahalliy telekanal va radiokanallar orqali 7 ming 664 marotaba, ijtimoiy tarmoqlarda 6 ming 172 marotaba, ommaviy axborot vositalarida 14 ming 815 marotaba chiqishlar amalga oshirildi.

Axborot maydonida vazirlik faoliyatiga oid ma'lumotlar tahlil etilib, 55 dan ortiq salbiy ko'rinishga ega ma'lumotlarga o'z vaqtida munosabatlar bildirildi.

Shuningdek, respublikamiz hududida yuzaga kelgan favqulodda vaziyatlar to'g'risidagi 163 ga yaqin axborotlar vazirlik va boshqa axborot manbalarida yoritildi.

Hisobot davrida, vazirlik faoliyatiga oid 65 ta videorolik, 17 ta rasmiy bayonotlar amalga oshirilib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikasiyalari agentligida tashkil etilgan 6 ta brifingda vazirlik mas'ul xodimlari ishtirok etdilar.

Vazirlikning rasmiy veb-saytida mavsumiy xarakterga ega bo'lgan favqulodda vaziyatlarni oldini olish bo'yicha ma'lumotlar, rasmi eslatmalar, videoroliklar joylashtirilgan, shuningdek respublikamizda yong'in bilan bog'liq yuzaga kelgan favqulodda vaziyatlar yoritib borilmoqda, shuningdek, aholini favqulodda vaziyatlardan ogohlantirish bo'yicha "SMS" xabar "Veb-sayt", "Telegram", "Feysbuk" ijtimoiy tarmoqlarida xabarlar berib kelinmoqda.

### **Favqulodda vaziyatlar vazirligi**